

BUGUNGI TA'LIM TIZIMIDA RUS TILI FANINI O'RGANISHNING MUHIMLILIK DARAJASI

Madina Nasullayeva Tohirovna

Qiziltepa tuman 2-son kasb hunar maktabi rus tili fani o'qituvchisi.

Nigina Nasulloyeva Nurullo qizi

Qiziltepa tuman 2-son kasb hunar maktabi rus tili fani o'qituvchisi.

Noila Narziyeva Nuriddinovna

Qiziltepa tuman 2-son kasb hunar maktabi rus tili fani o'qituvchisi.

ANNOTATASIYA.

Ushbu maqolada rus tili fanini hozirgi ta'lim tizimida tutgan o'rni, hamda fanni o'qitishda qanday usullardan foydalanish kerakligi yoritib o'tilgan. Bundan tashqari o'quvchilarda rus tiliga bo'lgan qiziqishni oshirish va til o'rganishning oson usullari ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Rus rili fani, interfaol usul, ilmiy, lingvistik, dialog, manolog, o'qituvchi, o'quvchi, fikr, og'zaki, yozma nutq.

АННОТАЦИЯ.

В данной статье описывается роль русского языка в современной системе образования, а также какие методы следует использовать при преподавании этого предмета. Кроме того, упомянуты простые способы повышения интереса учащихся к русскому языку и изучения языка.

ABSTRACT

This article describes the role of the Russian language in the current education system, as well as what methods should be used in teaching the subject. In addition, easy ways to increase students' interest in the Russian language and learn the language have been mentioned.

Zamonaviy ta'limning bugungi kunga e'tibor qaratilayotgan eng asosiy jihati darslarni interfaol usullardan foydalangan holda noan'anaviy tashkil qilishdir. Boshlang'ich maktab davri yosh qalblar uchun bilim poydevori qo'yiladigan davr hisoblanganligi tufayli, o'quvchilarga, mamlakatimizning bo'lajak ustozlari bo'lmish o'quvchilarning mavzularini ular yodda saqlab qoladigan tarzda bolalarga yetkazish

kerak. Bu davrda o'zlashtirilishi zarur bo'lgan fanlardan biri rus tilidir. Ma'lumki, bolalarda o'rganishga qiziqish va ta'lim darajalari turli darajalarda namoyon bo'lishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchining vazifasi o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, o'quv faoliyatini faollashtirish uchun sharoit yaratish, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirish, o'quvchilarning to'g'ri motivatsiyasi, mustaqilligi va ish faoliyatini takomillashtirishdir.

“Rus tili dunyodagi eng rivojlangan, mukammal va keng tarqalgan tillardan biridir. O'zbekistonda rus tili o'zining tarixiy ildizlariga ega bo'lib, hozirgacha yangi texnologiyalar, ilmiy va madaniy ma'lumotlar manbai hisoblanadi. Hozirgi vaqtda milliy maktablarning rus tili o'qituvchilari darslarni o'tkazish va o'qitishning yangi zamonaviy usullarini o'zlashtirishda noan'anaviy yondashuvlarni faol ravishda izlamoqda. Rus tili metodologiyasi ilmiy va lingvistik asoslarga asoslanadi. Bu shuni anglatadiki, rus tili metodologiyasi lug'at, fonetika, so'z shakllanishi va grammatika sohasidagi lingvistik tadqiqotlar natijalaridan foydalanadi. Ushbu tadqiqotlar ta'lim mazmunini, ya'ni boshlang'ich sinflarda o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan til faoliyatining minimal miqdorini aniqlashga yordam beradi.”¹

Rus tili darslarida interfaol usullardan foydalanish natijasida o'quvchilar hozir bo'lishni o'rganadilar, ularning so'z boyligi ko'payadi, ilmiy-nazariy bilimlari yanada mustahkamlanadi. Har bir rus tili darsida o'quvchilar nutqini rivojlantirish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan muloqot holatini yaratish uchun u yoki bu shaklda o'yin uslublaridan foydalanish tavsiya qilinadi. Rus tilida gapirish uch qismdan iborat nutqiy faoliyatdir. Dastavval gapirishga moyillik bo'ladi. So'ngra til vositasida fikrni bayon etish ehtiyoji tug'iladi. Nutqiy harakatni bajarishga mayl paydo bo'lsa, biror axborot yetkazish, savolga javob qaytarish yoki nutqqa bog'liq bo'lmagan harakat (masalan, iltimos, buyruq va hokazo)ni bajarishga kirishiladi. Gapirishning ushbu qismida aytish niyati hosil bo'ladi. Gapirishni o'rganishda sintagmatik aloqalarning ahamiyati katta bo'lib, bunda so'zning turli birikmalarda qo'llanilishi ko'zda tutiladi. Gapiruvchi xotirada tayyor turgan so'zni yoki grammatik birlikni tanlaydi, odatda ona tili hodisalari xotirada tayyor turadi. Gapirishning uchinchi qismi ijro etish, fikrni bayon etish, talaffuz etish: ya'ni, tashqi nutqda uni ifodalashdan iborat.

Uchala qismga amal qilish nutq faoliyati turlarida gapirishni yuzaga keltiradi. Fikrni og'zaki bayon etishga o'rgatish, muayyan fikrni yozma bayoni o'zgalar nutqini idrok etib fahmlash (tinglab va o'qib tushunish) kabi nutq faoliyati turlari bilan uzviy bog'langan holda tashkil etiladi. Fikrni og'zaki ikki shaklda, ya'ni bog'lanma (monolog) nutq va suhbat tarzidagi (dilog) nutqda ifodalash mumkin. Rus tilida

¹ Mirzayeva F. Kasbiy fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish (uslubiy qo'llanma). Toshkent - 2013

monolog va dialogni o'rganish o'quv dasturining asosiy talablaridandir. Monolog uchun to'liq jumlar va ularning nisbatan uzluksiz tizimlarini qo'llash ahamiyatli bo'lsa, dialogda tayyor jumlar ellips (qisqargan) gaplar ko'proq ishlatiladi. Rus tilida nutq faoliyati turlarining sifat va miqdor ko'rsatkichlari metodika asosida aniqlab beriladi. Gapirishda sifat ko'rsatkichlari talaba nutqining mavzuga muvofiqligi va uni bayon etish mukammalligi, gapirganda ijodiy yondashish; til materialini to'g'ri qo'llay bilishi asosiy omil hisoblanadi. O'quvchi nutqini o'stirish uchun uni ko'p gapirtirish kerak. Buning uchun esa mavzuli va mavzusiz suhbatlardan keng foydalanish samaralidir.

“O'qituvchi o'quvchi nutqini rag'batlantirib, yo'l qo'ygan xatolarini gaplar orasida talaffuz qilganda to'g'irlashi mumkin. O'qituvchi til o'rgatishda o'quvchining psixologiyasini bilishi va uni o'rganishi zarur. Chunki bir xil vaziyatda o'quvchilar tomonidan turli reaksiya bo'lishi mumkin kimdir xatosini to'g'rilanishini oddiy narsa deb qabul qiladi, uni to'g'irlyaydi va muloqotga tezda kirishib ketadi; boshqasi esa, aksincha to'xtab qoladi. Ayrim o'quvchilarda verbal informatsiyani idrok qilish sustroq bo'ladi. Ular bir marta eshitganini, ona tilida aytilgan bo'lsa ham, tushunishga qiynaladi, yoki o'ziga ishonchining kamligi tufayli, eshitganinformatsiyaning rostligiga shubha qiladi. Bunday o'quvchilarni faol suhbatga jalb etish qiyin kechadi. Ular bilan soddaroq turdagi mashqlarni yakka tartibda yoki guruhda bajarish, bilim darajasi o'zi bilan teng yoki pastroq guruxda shug'ullanishi yuqoridagi kabi “ruhiy noto'liqlik” hissiyotini tark etib, muloqotlarda tortinmay, qo'rqmay ishtirok etishlariga erishiladi.”¹

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi do'stona hamkorlik o'quv jarayonining samaradorligini oshirishi tabiiy holdir, shuning uchun akademik guruhlarda ijodiy muhitni yaratish foydali. Ta'lim samaradorligini ta'minlovchi asosiy shartlardan yana biri bolalarning rus tiliga ijobiy munosabatini rag'batlantirish va turli ta'lim vositalaridan foydalanish hisoblanadi. Bu vositalar ichida pedagogik texnologiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblangan didaktik o'yinlar asosiy o'rin tutadi. Xususan, dars samaradorligini ta'minlashdata'lim vositalaridan foydalanish, darslarda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishga xizmat qiluvchi va texnologik xarakterdagi didaktik o'yinlarning imkoniyatlari beqiyosdir. Rus tili darslarida o'rganilayotgan mavzu mazmuniga moslab tashkil etiladigan didaktik o'yinlar bolalarni mustaqil fikrlashga undaydi, til o'rganishga qiziqishini uyg'otadi. O'qishga qiziqish esa bilimlarni puxta o'zlashtirish garovidir.

“Rus tilini o'rgatish mazmuni umumta'lim muassasalarida juda qisqa va oson so'zlardan, jumladan boshlanadi. Mazmuni tushunishni o'rgatish sodda, qulay va

¹ Abramova S.V. Maktab o'quvchilarining rus tili bo'yicha dizayn va pedagogik ishlar. -2011.

zarur ko'rgazmalilik asosida olib boriladi. Mana shu yo'l bilan bolalarning so'z boyligi kengayib, chuqurlashib va o'sib borishi ta'minlanadi. Ayrim mutaxassislar rus tilini ham xuddi ona tilidek, ya'ni og'zaki nutq o'qish va yozishdan oldin o'rgatilishi kerak degan fikriga qo'shib, bu masalani bir muncha boshqacharoq talqin qiladi. U bola gapira boshlashdan avval kattalar nutqini eshita borib passiv ravishda material to'plashini nazarda tutib rus tilni o'qitishda reproduktiv ish formasidan oldin retseptiv ish formalari amalga oshirilishi, ya'ni gapirishdanoldin tinglash, yozishdan oldin esa o'qish kerak, degan xulosa chiqaradi. U o'z nuqtayi nazarini qiyinchiliklarni hisobga olish va og'zaki nutq yozma nutqdan farq qilganidek, bir ko'nikmani boshqasidan sinchiklab ajratish prinsiplari bilan mustahkamlaydi.”¹

“Bolalarda rus tiliga kuchli qiziqish uyg'otish maqsadida, turli ko'ngilochar o'yinlar, qiziqarli topishmoqlar, she'rlar, qo'shiqlar, dialogli suhbatlar ishlatilishi zarur. Bunda bolalar soni 5-8 tadan 10-12 tagacha bo'lishi talab etiladi. Muallifning dasturi doirasida 4-5 daqiqa davomida tanaffus e'lon qilinib, qo'shiq kuylash, raqsga tushish majburiy hisoblanadi. Natijada, zavq bilan kuylagan qo'shiqlar va aytilgan she'rlar bolalar xotirasiga singib, rus tilida so'zlashish ko'nikmasi shakllantirilib, leksik va fonetik jihatdan mustahkamlanadi.”²

Xulosa qilib aytganda til o'rganish o'quvchilar uchun murakkab jarayon sanaladi. O'quvchilar xorijiy tillarni o'zlashtirishda doimo qiyinchiliklarga duch keladilar. Biz yuqorida sanagan interfaol metodlar esa ana shu qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi va o'quvchilarni xorijiy tillar, xususan rus tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini orttirishga xizmat qiladi. Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki uyushgan holda (darsda) amaliy egallash murnkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi. Oxirgi paytlarda rus tili darslarida kognitiv faoliyat vositalaridan foydalanish va ularning ahamiyati ancha sezilarli darajada faollashdi. Sababi o'qituvchilar mustaqil ta'lim olishda rus tilining ahamiyatini yildan-yilga ko'proq anglab yetmoqda. Rus tilini o'rganish hamma fanlarni o'zlashtirishga yordam beradi. Boshqa tomondan esa, so'zlarga intilish, so'zlarni o'rganishga bo'lgan qiziqish va o'quvchilar soni ortib bormoqda, shuningdek, axborot va muloqot kabi muhimko'nikmalar takomillashmoqda. Rus tili va adabiyoti darslarida umumiy madaniy, axborot va muloqot kabi muhim kompetensiyalar rivojlantiriladi. Bundan kelib chiqadiki, rus tili va adabiyotini o'qitishda tizimli-faol yondashuvni joriy qilish masalasi dolzarbdir.

¹ Deikina A.D., Yanchenko V.D. Rus tilini o'qitish metodikasi tendentsiyalari-2011

² Drozdetskaya G.V. Rus tili va nutq madaniyatini o'qitishda masofaviy ta'lim masalalari // Ta'lim falsafasi. -2011.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzayeva F. Kasbiy fanlarni o‘qitishda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish(uslubiy qo‘llanma). Toshkent - 2013
2. Abramova S.V. Maktab o‘quvchilarining rus tili bo‘yicha dizayn va pedagogik ishlar. -2011.
3. Deikina A.D., Yanchenko V.D. Rus tilini o‘qitish metodikasi tendentsiyalari-2011
4. Drozdetskaya G.V. Rus tili va nutq madaniyatini o‘qitishda masofaviy ta’lim masalalari // Ta’lim falsafasi. -2011.